

JIGAR BILAN BOG'LIQ KASALLIKLAR

Sh.Yusufova

Central Asian Medical University 2-bosqich talabasi,


Z.M.Komilov

Ilmiy raxbar: Central Asian Medical University assistenti. Farg'ona O'zbekiston.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jigarining surunkali rivojlanib boradigan kasalligi-jigar sirrozi haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ushbu kasallikni kelib chiqish sabablari va davo choralari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: gepatit, brutselloz, meterioizm, postnekrotik sirroz, protrombik ko'rsatkich, apatiya.

Jigar serrozi – jigarining surunkali rivojlanib boradigan kasalligi bunda jigar to'qimasi yallig'lanib, uning bir qismi biriktiruvchi to'qima bilan almashinadi. Bugungi kunda jigar kasalliklari bilan yiliga 1000 dan ortiq inson vafot etyapti. Jigarining o'tkir yallig'lanishi – gepatitda, uning B, C, D shakllarida, o'tkir gepatit surunkali gepatitga aylanayotganda, bezgak, sil, zaxm, brutsellyoz kabi yuqumli kasalliklarda, o't pufagi va o't yo'llarining surunkali yallig'lanishida, turli kimyoviy moddalardan muntazam zaharlanishda, shuningdek, alkogolizm va boshqa sabablarga ko'ra paydo bo'ladi.



Jigar sirrozi — sekin rivojlanadigan surunkali kasallik. Jigar sirrozi turlicha namoyon bo'ladi va u xastalikning qaysi shaklida kechishi hamda davriga bog'liq; tekshirganda jigarining qattiqlashgani va funksiyasining buzilganligiga qaramay, kishi uzoq vaqt hech qanday xastalik alomatini sezmay yurishi mumkin. Kasallik zo'rayganda bemor darmonsizlanadi, ozib ketadi, ishtahadan qoladi, kekiradi, ko'ngli ayniydi, ba'zan qusadi, ichi ketadi yoki qotadi, qorni dam bo'ladi, tana xarorati ko'tariladi, qorin bo'shlig'ida suyuqlik to'planishi natijasida u ko'tariladi (istisqo), burni qonaydi, badani qichishadi, ba'zan sarg'ayadi; kamqonlik avjiga chiqadi; jigari va ayniqsa talog'i kattalashadi va qattiqlashadi.

Davoni vrach tayinlaydi. Jigar sirrozi uzoq vaqt davolanadi, kasallik zo'rayganda bemorni darhol kasalxonaga yotqizish kerak. Parhezga qat'iy rioya qilishning ahamiyati



katta. Bemorga, asosan, yengil hazm bo'ladigan, qand, oqsil va vitaminlar (ayniqsa, C vitamin va B gruppaga) boy sutli va o'simlik ovqatlar beriladi. Tvorog (oson hazm bo'ladigan oqsillarga ega), yog'siz go'sht, baliq, shuningdek, ozgina sariyog' bilan qaymoq yoki smetana iste'mol qilish mumkin; spirtli ichimliklar ichish qat'iy taqiqlanadi. Jigar sirrozining avj olishiga yo'l qo'ymaydigan dorilar buyuriladi. Jigar sirrozini davolashda avvalo unga sabab bo'ladigan omillarni bartaraf etish muhim. Jigar sirroziga olib kelgan infeksiya aniqlansa, uni tugatish choralari ko'riladi. Jigar sirrozining oldini olish uchun mehnat va turmush sharoitini sog'lomlashtirish, alkogolizmga qarshi kurash olib borish kerak.

Jigar sirrozida kuzatiladigan belgilar:

1. Ba'zi-ba'zida o'ng qovurg'alar ostida paydo bo'ladigan og'riq. Og'riq ko'pincha jismoniy zo'riqishdan yoki qovurilgan, yog'li taomlar va alkagol iste'molidan keyin kuchayadi.

2. Og'izda achchiq ta'm va quruqlik hissi paydo bo'lishi, ayniqsa tong vaqtida.

3. Odamni surunkali ich ketishi va kuchli qorin dam bo'lishi (meteorizm) bezovta qiladi

4. Bemor birmuncha vazn yo'qotadi, tajang va tez charchaydigan bo'lib qoladi.

5. Kasallikning ba'zi formalari, masalan postnekrotik sirroz dastalabki bosqichni o'zidayoq yaqqol alomat teri sariqligini chaqiradi.

Jigarning butkul ishdan chiqishiga olib keladigan sirroz kasalligi nafaqat spirtli ichimlikka mukkasidan ketgan kishilar, balki boshqalarda ham kuzatilishi mumkin. 80 foiz hollarda sirroz spirtli ichimlik sabab kelib chiqqani bilan ayrim paytlarda uni og'ziga olmagan odamda ham kasallik kuzatilishi va bunga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- surunkali virusli hepatit (B, C);

- o't yo'li kasalliklari;

- dorilardan va kimyoviy zaharlanish;

- ratsionda oqsil va vitaminlarning surunkali tanqisligi;

- moddalar almashinuvi bilan tug'ma jiddiy muammolarning borligi.

Kasallik uch bosqichda bo'ladi. Deyarli simptomsiz kechadigan birinchi bosqichdagi kasallikni faqatgina tahlillar bilan aniqlash mumkin. Bilirubin miqdori ortib, protrombik ko'rsatkichining miqdori pasayadi. Agar kasallik shu bosqichda aniqlansa, parhez va turmush tarzini o'zgartirish orqali uning rivojlanishini sekinlashtiradi. Ikkinchi bosqichida ham kasallikning rivojlanib ketishini sekinlashtirsa bo'ladi. Aynan shu sabab ham quyidagi simptomlar kuzatilganda zudlik bilan shifokorga murojaat qilish kerak.

- holsizlik;

- apatiya (loqaydlilik);

- bosh og'rig'i;

- ko'ngil aynishi;

- diareya;

- o'ng qovurg'a ostida diskomfort;

- burun qonashi;

- milklarning qonashi;



- soch to'kilishi.

Uchinchi bosqich terminal hisoblanadi. Bunda faqat biriktiruvchi to'qimalardan iborat bo'lib qolgan jigar bironta ham vazifani bajara olmaydi va sirrozga xos keng tarqalgan simptomlar: terining sarg'ayishi, qorinning shishishi va kattalashishi, yuz va oyoqlar shishishi kuzatiladi.

Ushbu kasallikni davolashning yagona radikal usuli — jigar ko'chirib o'tkazish hisoblanadi. Lekin birinchi yoki ikkinchi bosqichlarida aniqlansa, uni sekinlashtirish va rivojlanishining oldini olish mumkin.

Gepatomegaliya — jigar o'lchamining kattalashishi bilan namoyon bo'ladigan sindrom. Sabablari virusli gepatit, infeksiyon mononukleoz, alkogol kasalliklari, sirroz, yog' to'planishi (gemoxromotoz), Badda-Kiari sindromi (jigar venalari trombozi), yog'li distrofiya, onkologik kasalliklar, yurak-qon tomir kasalliklari va boshqa patologiyalar bo'lishi mumkin.

5.5 Jigar fibrozi. Bu patologiya toksik moddalar ta'sirida gepatotsitlar shikastlanishi, virusli gepatit rivojlanishi va boshqa salbiy omillar natijasida yuzaga keladigan biriktiruvchi jigar to'qimalarining ortiqcha o'sishidir.

Dastlabki patologik o'zgarishlar asemptomatikdir, lekin ko'pincha jigar fermentlarining faolligini ko'rsatadigan laboratoriya tekshiruvlari paytida aniqlanadi. Ushbu bosqichda jigar hajmi kattalashadi, turli qon hujayralari darajasi kamayadi, bu anemiya va trombositopeniya rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Jigar kasalliklarini tabiiy ravishda davolash.

1. Jigar muammolari uchun an'anaviy vosita bo'lgan tuya tikani o'simligi jigardan toksinlarni olib tashlashga yordam beradigan fermentlar ishlab chiqarishni ko'paytirishi mumkin.

2. Olma sirkasi jigarda ortiqcha yog' to'planishini kamaytiradi va ozishga yordam beradi. Shuningdek, u jigarni himoya qiluvchi xususiyatlarga ega va sog'lom jigar funktsiyalarini tartibga soladi.

3. Bir stakan suvga yarim limonni siqing va buni bir necha hafta davomida kuniga ikki marta iching. Bu jigarda to'plangan yog'ni kamaytirishga yordam beradi, vaqt o'tishi bilan yog'li jigar kasalligini tabiiy ravishda davolaydi.

4. Ko'k choy jigar faoliyatini yaxshilaydi. Shuningdek, u tanadagi xolesterin darajasini pasaytiradi va jigarda ortiqcha yog' to'planishini cheklaydi. Kuniga 2 stakan ko'k choy ichishni kanda qilmang.

5. Kurkuma organizmdagi yog'larning hazm bo'lishini yaxshilaydi va ularning jigarda to'planishini to'xtatadi. 1 stakan sutga 1 choy qoshiq kurkuma qo'shing va har kuni ichishni unutmang!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Булатова И.А. Функциональное состояние эндотелия и его диагностическая значимость при оценке тяжести хронических диффузных заболеваний печени: автореф. дис. канд. мед. наук. – Екатеринбург, 2009. – 17с



2. Курбонова З.Ч. Вирус этиологияли сурункали гепатит ва жигар циррозида гемостаз тизими бузилиши хусусиятлари: автореф. дис. кан. мед. наук. – Тошкент, 2019. -45 с.
3. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Функциональная характеристика тромбоцитов у больных циррозами печени вирусной этиологии // Российская наука в современном мире. – Москва, 2019. – С. 47-48.
4. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Нарушение системы гемостаза при хронических диффузных заболеваниях печени: монография. Тошкент, "Ҳилол нашр" босмахонаси, 2021. С. 106-108.
5. Куркина И.А., Волкова О.С., Маевская М.В., Ивашкин В.Т. Геморрагический синдром при циррозе печени // Рос. Журн. гастроэнтерол., гепатол., колопроктол. – 2012. – № 22 (6). – С.14–21.
6. Павлов Ч.С., Шульпекова Ю.О., Золотаревский В.Б., Коган Е.А., Ивашкин В.Т. Современные методы ранней диагностики фиброза печени // Клиническая медицина. – 2005. – № 12. – С. 58–60.
7. Саидов А.Б., Сайфутдинова З.А., Каримов Х.Я. Лекарственно-индуцированный токсический гепатит: современные воззрения // Назарий ва клиник тиббиёт, 2021. -№3. – Б. 52-58